

ZAMONAVIY KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA IJOBIIY VA SALBIY EMOTSIYANI IFODALASHNING GRADATSION USULLARI

Aslonova Husnida Botirjon qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy koreys va o‘zbek tillarida ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalashning gradatsion usullariga bag‘ishlanadi. Maqolada zamonaviy koreys va o‘zbek tillarida emotsiyani qanday ifoda etilishi hamda nutqda emotsiyaning tutgan o‘rni keng yoritilgan. Shuningdek, mazkur ikki tilda gradatsion ma‘nolar tahlil qilinib, vaziyatga nisbatan ijobiy va salbiy emotsiya bildirishning gradatsion usullari birma-bir o‘rganib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *emotsiya, gradatsiya, undov so‘z, intonatsiya, ravish, kesimlik qo‘shimchalari.*

Abstract. *The article is devoted to the gradational methods of expressing positive and negative emotions in modern Korean and Uzbek languages. The study extensively examines the ways emotions are expressed in modern Korean and Uzbek, as well as the role of emotion in speech and communication. Furthermore, gradational meanings in the both languages are analyzed, and the gradational methods of conveying positive and negative emotions in relation to different situations are systematically investigated.*

Key words: *emotion, gradation, interjection, intonation, adverb, predicative suffixes.*

KIRISH

Gradatsiyaga koreys tilshunosligida matn mazmuni yoki ma‘lumotning nisbatini yoki darajasini bosqichma-bosqich oshirib, uning ma‘nosini tobora kuchaytirib, balandlashtirib va chuqurlashtirib, o‘quvchini tabiiy ravishda eng yuqori nuqtaga olib chiqadigan ifoda usuli sifatida qaraladi. O‘zbek tilshunosligida lug‘aviy darajalanish leksema va frazemalarning semantik qurilishlariga xos bo‘lib, bunda mustaqil sememalar tarkibida bir belgining ozlik yoki ko‘plik holatlarini aks ettiruvchi umumiy semalar mavjud deb qaraladi. Aslida shu semalarning asosan uch yoki undan ortiq leksema va frazemalarga xosligidan lug‘aviy birliklarning darajalanuv qatori yuzaga keladi. Leksik graduonimiya denotativ va konnotativ semalarga tashkil topadi. Denotativ semalar so‘zning ma‘no “o‘zagi” yoki atov mundarijasini tashkil etuvchi sema bo‘lib. denotativ semalar aql yoki til tafakkuri tomonidan hosil qilingan mantiqiy semantik belgilar hisoblanadi. Bularning yaxlit tizimi so‘z ma‘nosini shakllantiradi. Konnotativ semalar esa denotativ ma‘noga subyektivlik, ijtimoiylik, uslubiylik,

emotsionallik, ekspressivlik, tagma’ nolik kabi sifatlarda hamroh bo‘luvchi qo‘shimcha ma’ nolar sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

O‘zbek tilshunosligida sifat darajalari mavzusi juda ko‘p olimlarning izlanishlariga sabab bo‘lgan, jumladan: V.Vinogradov, A.Kononov⁷⁰, A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, Sh.Rahmatullayev, H.G‘.Ne‘matov, M.Sodiqova, A.Hojiyev, O.Bozorov, Z.Djumabayeva, G‘.Rahmonov; o‘zbek va rus tillaridagi darajalar – X.Yoqubova, darajalarning affiksli va affikssiz fe‘l shakllari tasnifi – S.Ferdaus, fe‘llarda daraja – M.Mirtojiyev, S.Mahmatqulovlar tomonidan tadqiq etilgan. O‘zbek tilida daraja kategoriyasi dastavval aniqlangan so‘z turkumi hisoblangan sifat tarixan maxsus morfologik ko‘rsatkichga ega bo‘lmagan, u mustaqil so‘z turkumi kabi ham mavjud bo‘lmagan, keyinroq ot turkumidan kelib chiqqan va rivojlangan. Muayyan shakllar ot va sifat uchun mushtarak hisoblangan, yana boshqa birlari faqat sifatgagina tegishli bo‘lib, keyingi davrlarda taraqqiy etmagan. Turkiy tillar rivojlanib borish jarayonida belgi ifodalovchi bir qator tub va yasama so‘zlar, yasovchi affikslar mavjud bo‘lib, turkiy tillardagi sifat darajalari belgining ortiqligiga ishora etsa – sintaktik (*juda chiroyli*), belgining ozligiga ishora etsa – morfologik (*kichikroq*) yo‘l bilan hosil qilinishi isbotlangan. R.Qo‘ng‘urov sifat yasovchi morfemalardagi sinonimiya, sifat darajalari belgini chog‘ishtirib ifodalashi, sifat leksemalarning ifoda semalaridagi konnotatsiya masalasi, ya’ni uslubiy ma’ nolarini daraja hosil qiluvchi affikslar, sinonimik qatordagi leksemalarni ma’no nozikliklarini farqlovchi, shu leksemaning muayyan nutqiy vaziyatda anglatadigan konnotativ ma’nosini uslubiy ma’no tarzida o‘rgangan, shu bilan bir qatorda *qaramoq* fe‘lining turli: *alang-jalang* → *jovdir-dovdir qaramoq* → *ola-kula* → *dovdir-jovdir* → *mo‘lt-mo‘lt* → *g‘ilt-g‘ilt* → *jovdirab* → *alanglab* → *baqrayib* → *angrayib* → *xo‘mrayib* → *ishshayib* → *tikrayib* → *adrayib qaramoq*; *yig‘lamoq* fe‘lining quyidagi: *uv yig‘lamoq* → *uvvos tortib yig‘lamoq* → *piqqillab yig‘lamoq* → *ho‘ngrab yig‘lamoq* → *o‘krab yig‘lamoq* → *ingalab yig‘lamoq* → *bag‘illab yig‘lamoq* → *pix-pix yig‘lamoq* → *chirillab yig‘lamoq* ma’ nolarini keltirgan.

O‘zbek tilshunosligida ba’zi so‘zlar sifat darajalariga o‘xshab kuchli va emotsional belgini ifodalashi, sifatdagi darajani maxsus grammatik kategoriya sifatida ajratilmaganligi, grammatik kategoriyaning faqat ot va fe‘lda mavjudligi o‘zbek tilshunosligi formal-funksional yondashuvning asoschisi S.Ivanov tomonidan izohlab berilgan. M.Sodiqova orttirma darajaga belgining normal holatdan yuqoriligini ko‘rsatuvchi shakl, uni hosil qilishning morfologik, leksik,

leksik-semantik va fonetik usullarini tadqiq etgan, ozaytirma darajaga belgining normal darajaga yetmaganligini ifodalovchi daraja shakli, uni hosil qilish uchun affiksatsiya va leksik usullar mahsuldorligi zarurligini ta’kidlagan⁷⁵. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, I.Rasulov, X.Doniyorovlar sifatlarning oddiy darajaga munosabatini namoyon etishlari ko’zga tashlanadi: “rang-tus bildiruvchi ayrim sifatda qo’llanuvchi *-ish*, *-(i)mtir* affikslari belgining kuchsiz darajasini anglatmasdan belgining sifat bildirgan rang-tusga moyilligini, shunga yaqinligini ko’rsatishgan: *oqish*, *ko’kish*, *ko’kimtir* kabi. *Qora qizil*, *oq sariq* kabi shakllarda ham xuddi shunday ma’no ifodalangan: *qora qizil – qoraga yaqin (qoraga moyil) qizil; oq sariq – oqqa yaqin (oq rangga moyil) sariq*”⁷⁶. S.G’iyosov belgi darajasi hamda ijobiy bo’yoq darajasi semalarini qo’llagan, o’zbek, rus tillaridagi holat sifatlarining leksik-semantik xususiyatlarini sistemstruktur jihatdan tahlil etgan va sifatlarning belgini darajalash xususiyatlarida to’xtalib, “leksik gradual oppozitsiyalar” tushunchasini tadqiq etgan (umumiy ijobiy baho: *tuzuk* → *durust* → *yaxshi* → *ajoyib*; tashqi ijobiy baho: *chiroyli* → *ko’rkam* → *suluv* → *go’zal* → *zebo*).

Gradatsiya koreys tilida **점층법** deb nomlanadi. Ma’lumki, gradatsiya ikki turdan iborat: klimaks va antiklimaks. Klimaks turi ma’noning sekin asta kuchayib borishini ifodalab, koreys tilida **점층법** deb yuritiladi. Antiklimaks esa ma’noning bosqichma-bosqich pasayib borishi bo’lib, koreys tilida **점강법** deb ataladi. Gradatsiya koreys tilshunosligi va adabiyotshunosligida ham muhim ahamiyat kasb etadigan hodisa hisoblanadi. Gradatsiya tushunchasi koreys lug’atlarida quyidagicha ta’riflangan: “수사법상 강조법의 한 가지. 같거나 비슷한 어구를 겹치어 써서 문장의 뜻이 점점 강조되고, 커지고, 높아지게 하여 독자의 감흥을 고조시키거나 절정으로 이끄는 표현 방법.”³⁴ Bu yerda gradatsiya ritorikaning bir turi sifatida ta’riflangan. O’xshash yoki bir xil ibora ketma-ket yozilib, gapning ma’nosini yanada kuchaytirib, oshirib kitobxonning emotsiyasini cho’qqiga tortuvchi ifoda usuli ekanligi keltirilgan. Yana birida: “수사법의 한 기법. 어구를 점점 겹치어 써서 차차로 문장의 뜻을 강화시켜 독자의 느낌을 절정으로 이끄는 수법.”³⁵ Bu lug’atda ham gradatsiyaga ritorikaning bir turi deya izoh berilgan. Bir iborani takroran yozib,

³⁴ Tarjima: Ritorikada ta’kidlash usulining bir turi. Bir xil yoki o’xshash so’zlar takrorlanib, jumlaning ma’nosi tobora kuchayib, kattalashib, balandlashib, o’quvchining emotsiyasini oshirib, ularni eng yuqori nuqtaga olib boradigan ifoda usuli. Qarang: 이기문. 동아 새국어사전. 제5판. 독산동아.2003.-P.2056.

³⁵ Tarjima: Ritorikaning bir turi. So’zlarni bosqichma-bosqich takrorlab, jumlaning ma’nosini asta-sekin kuchaytirib, o’quvchining emotsiyasini eng yuqori cho’qqiga olib boradigan usul. Qarang: 이희승. 민중 옛센스 국어사전. 제6판. 민중서림. 2006.- P.2057.

gapning ma’nosini kuchaytirib kitobxonning emotsiyasini eng yuqori darajaga ko‘taruvchi usul deb yoritilgan. Shuningdek, gradatsiyaga koreys tilshunosligida matn mazmuni yoki ma’lumotning nisbatini yoki darajasini bosqichma-bosqich oshirib, uning ma’nosini tobora kuchaytirib, balandlashtirib va chuqurlashtirib, o‘quvchini tabiiy ravishda eng yuqori nuqtaga olib chiqadigan ifoda usuli sifatida qaraladi. Gradatsiya o‘quvchini ishontirib, uni ta’sirlantirishda samarali hisoblanadi.

NATIJALAR

1.Undov so‘zlar (감탄사) orqali ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalashning semantik gradatsiyasi.

“아, 참! – 어머, 이게 뭐야! -와, 대박이다!”

1. 아 참, 대학교를 졸업했어요?
2. 어머, 이게 뭐야! 졸업장 땀어?
3. 와, 대박이다. 이제 완전한 전문가가 된 거예요.

Ushbu gradatsion ketma-ketlik undov so‘zlar yordamida hosil qilingan bo‘lib, undov so‘z so‘zlovchining vaziyatga bo‘lgan emotsiyasi bora-bora kuchaytirib borganining guvohi bo‘lishingiz mumkin. Bu gradatsion ketma-ketlik so‘zlovchining ijobiy emotsiyasi ifodalashda qo‘llanilgan.

“어, 이거 뭐야? -아, 진짜?- 와, 대단해!”

- 가. 어, 이거 뭐야?
나. 토픽 시험 결과예요.
가. 아, 진짜? 몇 급 땀어?
나. 6 급을 받았어요.
가. 와, 대단해! 축하해!

Navbatdagi misolda ham berilgan gradatsion ketma-ketlik so‘zlovchining berilgan vaziyatga ijobiy emotsiyasi ifodalab, hayratini yanada ortib borganligini namoyon etgan.

“어? 이게 뭐지? 와, 진짜 멋지다! 우와, 믿을 수가 없어!”

- 1.어? 선물이라고?
- 2.이게 뭐지?
- 3.와, 진짜 멋지다! 고마워.
- 4.우와, 믿을 수가 없어! 정말 고맙다!

Ushbu berilgan misollarda “어? 이게 뭐지? 와, 진짜 멋지다! 우와, 믿을 수가 없어!” ketma-ketligi gradatsiya jarayonini namoyon etib, so‘lovchining ijobiy emotsiya kuchayib borayotganligini ifoda etgan.

“흠... 오! 아이고! 와우!”

1. 흠...오! 예쁘다!
2. 아이고! 예뻐!
3. 와우! 너무 예쁘다!

Navbatdagi “흠... 오! 아이고! 와우!” gradatsion ketma-ketligi ham so‘zlovchining qandaydir buyumni chiroyli ekanligini bora-bora kuchaytirilgan emotsiya orqali ifoda etgan.

“오, 이런! 어머니! 세상에! 대박!”

1. 오, 이런! 춤도 출 줄 알아?
2. 어머니! 춤도 잘 추네.
3. 세상에! 너무 예쁘다!
4. 대박! 진짜 텔런트네.

Bu keltirgan misolimizda ham “오, 이런! 어머니! 세상에! 대박!” ketma-ketligi ijobiy emotsiya va hayratni yanada oshib borganligini namoyon etgan.

“아, 이렇게 아름다울 수가! 어머, 정말 환상적이야! 와, 세상에 이런 광경이!”

1. 아, 이렇게 아름다울 수가! 공연이 아주 재미있어.
2. 어머, 정말 환상적이야! 너무 좋다!
3. 와, 세상에 이런 광경이! 처음 봐.

Navbatdagi misolda “아, 이렇게 아름다울 수가! 어머, 정말 환상적이야! 와, 세상에 이런 광경이!” gradatsion ketma-ketligi so‘zlovchining tomoshaga bildirgan kuchli emotsiyasini yanada oshirib ifoda etgan. Shuningdek, “어? 이게 뭐야? 어머! 정말 대단한데! 아이구, 믿을 수 없어! 아이고, 너무 멋져! 와, 정말 끝내준다! 우와, 말문이 막힌다! 와아아, 최고야!”, “와! 진짜 대박이다! 어머, 이건 꿈인가 생시인가! 헉, 이렇게 멋진 걸 처음 봤어! 와아, 완전 감탄이 절로 나온다!”, “아! 정말 놀라워! 어머, 이게 어떻게 가능하지? 와, 믿을 수 없을 만큼 멋져! 우와, 세상에 이런 일이!” singari ketma-ketliklar ham gradatsiyaga uchrab so‘zlovchining vaziyatga ijobiy emotsiyasi ifodalashda keng qo‘llaniladi.

“헉! 어머! 아이고!”

1. 헉! 왜 울어?
2. 어머! 무슨 일 있어?
3. 아이고! 속상해..

Yuqorida keltirilgan misollarda esa, aksincha, so‘zlovchining salbiy emotsiyasini ifoda etgan. Borgan sari achinish, hayrat emotsiyasi kuchayib borganligini ko‘rish mumkin.

2. Emotsional sifatlar (감정 형용사) orqali ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalashning semantik gradatsiyasi.

슬프다-울먹이다-통곡하다 -xafa bo‘lmoq-yig‘lamsiramoq-o‘kirib yig‘lamoq

분노하다-짜증-무덤덤하다 – g‘azablanmoq-g‘ashi kelmoq-hotirjam

처음에는 약간 불안했다. 하지만 시간이 지날수록 그 불안은 걱정으로 변했고, 곧 두려움이 되었다. 마지막에는 공포가 그의 온몸을 휘감았다. – avvalida biroz ko‘ngli g‘ash bo‘ldi. Lekin vaqt o‘tgani sayin u g‘ashlik havotirga ko‘chdi. Bir zumda qo‘rquvga aylandi. Oxirida esa, daxshat uning butun tanasini egallab oldi.

“죽는 날까지 하늘을 우러러 한 점 부끄럼이 없기를, 잎새에 이는 바람에도 나는 괴로워했다.” (윤동주, “서시”) -umrimning yakunigacha osmonga qarab zarracha uyalish hissi yo‘q bo‘lishini tiladim. Yaproqlar tebranishi ham men qo‘rqitar edi.

“아내는 밥을 지으면서 속으로는 불안한 생각이 차츰차츰 커져만 갔다. 가난, 병, 그리고 남편의 귀가 지연... 그 불안은 점점 걱정으로, 두려움으로 커졌다.” (현진건, “운수 좋은 날”)– xotin ovqat qila turib ich-ichidan g‘ashlik sekin-sekin kuchayib bordi. Kambag‘allik, kasallik hamda erining uyga qaytishi kechikayotganligi... u g‘ashlik sekin asta havotirga, qo‘rquvga ko‘chdi.

“처음에는 슬픔이 잠시 스쳤지만, 시간이 흐르면서 그 슬픔은 눈물로, 그리고 절망으로 바뀌었다.” (박인환, “세월이 가면”) – avvalida biroz muddat xafagarchilik bore di, vaqt o‘tgani sayin u xafagarchilik ko‘zyoshga va umidsizlikka ko‘chdi.

“처음에는 조금 씩스러웠다. 하지만 시간이 지나면서 그 마음은 점점 커져서, 결국 참을 수 없는 사랑이 되었다.” (황순원, “소나기”) – Avvalida biroz uyatli bo‘ldi. Lekin vaqt o‘tgani sayin qalbim sekin-sekin kengayib, oxir oqibat ko‘zga uyqu kelmas muhabbatga aylandi.

Yuqorida keltirilgan misollar asosan so‘zlovchining salbiy emotsiyasini ifoda etgan.

기쁘다-행복하다-감격하다 -xursand-baxtli-ta’sirli

“자세히 보아야 예쁘다, 오래 보아야 사랑스럽다. 너도 그렇다.” (나태주, “풀꽃”) – yaxshilab qarasa chiroyli, uzoq tikilsa suyuqli. Sen ham shundayсан.

Navbatdagi misollarda esa emotsional sifatlar so‘zlovchining ijobiy emotsiyasini gradatsion ifodalab, ma’noni kuchaytirgan. Shuningdek, so‘zlovchining emotsiyasi faqat emotsional sifatlar bilangina ifodalanib qolmay, balki, holat fe’llari orqali ham talqin etilishi mumkin.

그녀는 미소를 지었다가, 웃음을 터뜨리다가, 결국 기쁨의 눈물을 흘렸다 – u jilmaydi, kuldi, oxiri xursandligidan yig‘lab yubordi.

"그녀는 무시했고, 무시했고, 결국에는 완전히 무관심해졌다." – u e’tibor bermadi, mensimadi. Oxirida umuman qiziqish bildirmadi.

망연자실하다-놀라다-멍해지다 – hayron qolmoq-hayratlanmoq-qotib qolmoq

그는 울었다-흐느꼈다-결국 오열했다 – u yig‘ladi-uvvos solib yig‘ladi-o‘kirib yig‘ladi. 실망했다-낙담했다-모든 것을 포기했다- umidsizlandi-umidini yo‘qotdi-barchasidan voz kechdi.

3. Ravish (부사) orqali orqali ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalashning semantik gradatsiyasi.

“그녀는 조금씩 긴장하기 시작했다. 조금 더 시간이 흐르자 점점 불안해졌고, 더욱더 마음이 조마조마해졌다. 아주 심한 두려움이 밀려왔고, 몹시 떨리기 시작했다. 엄청나게 공포스러웠고, 극도로 무서워졌다.”- u biroz hayajonlanishni boshladi. Biroz vaqt o‘tganidan so‘ng ko‘ngli g‘ash bo‘lishni boshladi. Yuragi yanada havotirlana boshladi. Juda kuchli qo‘rquv kelib, qaltirashni boshladi. Juda ham daxshatli edi. Qo‘rquvi cho‘qqisiga yetdi. Ushbu misolda nafaqat ravish, balki, emotsiyani ifodalovchi sifatlar ham gradatsiya hodisasiga uchragan.

“그는 약간 긴장했지만, 시간이 지나면서 조금 불안해졌다. 다소 초조해졌고, 꽤 심각한 걱정이 되었다. 상당히 당황했고, 매우 불안했으며, 몹시 두려워했고, 결국 극도로 긴장했다.” – u birozgina hayajonladi, lekin vaqt o‘tib biroz ko‘ngli g‘ash bo‘la boshladi. Ozmi ko‘pmi havotirlandi, juda kuchli havotir boshlandi. Yetarlicha dovdirab qoldi, juda ham g‘ash bo‘ldi, daxshatli darajada qo‘rqdi. Oxirida havotiri cho‘qqisiga yetdi. Ushbu keltirilgan misolda ham nafaqat ravishlar, balki, emotsional sifatlardan ham foydalanilib, salbiy emotsiyani kuchaytirib ifodalashda gradatsiya usuli qo‘llanilgan.

“그의 말은 다소 진지했다. 꽤 의미심장했고, 매우 중요한 내용이었다. 정말 감동적이었으며, 정말로 마음을 울렸다. 진짜로 깊은 울림이 있었고, 완전히 가슴에 남았다.”- uning so‘zlari biroz jiddiy edi. Juda ma‘noli edi. Juda ham muhim edi. Rostan ham ta’sirli bo‘lib, chindan ham qalbni larzaga soldi. Haqiqatdan ham chuqur qayg‘u bor edi. To‘laligicha qalb tubida muhrlandi.

“살짝 불안했지만, 조금씩 걱정이 커졌고, 점점 마음이 조마조마해졌다. 점차 두려움이 엄습했고, 몹시 불안해졌으며, 극도로 긴장했다.” – sal g‘ash bo‘lib, biroz havotir kuchaydi. Sekin-asta notinchlik hisi ortdi. Sekin-sekin qo‘rquv qucha boshladi. Juda g‘ash bo‘lib, havotir cho‘qqisiga yetdi.

“약간 화가 났지만, 점차 짜증이 나기 시작했고, 조금씩 분노가 치밀었다. 서서히 화가 격해졌으며, 매우 분노했고, 완전히 폭발 직전이었다.” – salgina jaxli chiqdi, sekin-sekin g‘ashiga tegishni boshladi, biroz g‘azablandi. Sekin-asta jaxli ortib, juda g‘azablandi, juda ham portlagudek edi.

“이 음식은 약간 달콤하다. 조금 더 익으면 더 달콤해지고, 점점 진한 단맛이 나며, 매우 달콤해진다. 심지어 입안 가득 행복한 맛이 퍼진다.” – bu taom sal shirin. Yana biroz

pishsa yanada shirin bo‘ladi. Sekin-sekin shirin maza chiqib, juda shirinlashadi. Yana ham baxtli maza og‘iz ichiga yoyiladi. Ushbu misolda esa ijobiy emotsiya gradatsiya usuli orqali o‘z ifodasini topgan.

“약간 기뻐지만, 조금씩 웃음이 번졌고, 점점 행복해졌으며, 차츰 기쁨이 넘쳐났다. 매우 즐거워졌고, 완전히 행복감에 젖었다.” – sal xursand bo‘ldi. Biroz yuziga kulgu yugurdi. Sekin-sekin baxtiyor bo‘ldi. Sekin-asta xursandchilik ortib bordi. Juda zavqlandi. Juda ham baxtdan sarmast bo‘ldi. Navbatdagi misolda ham ijobiy emotsiyaning gradatsiya usulida kuchayib borishi ifoda etilgan.

약간 → 조금씩 → 점차 → 점점 → 서서히 → 더욱 → 몹시 → 극도로

살짝 → 약간 → 조금씩 → 점점 → 서서히 → 차츰 → 더욱 → 극도로

조금 → 살짝 → 약간 → 점차 → 점점 → 차츰 → 더욱 → 몹시 → 극도로

Yuqorida keltirilgan gradatsiya ham so‘zlovchining salbiy va ijobiy emotsiyasini darajalab ifodalashda keng qo‘llaniladi.

4.Emotsiyani ifodalovchi kesimlik qo‘shimchalari (감탄 종결어미) orqali ijobiy va salbiy emotsiyani ifodalashning semantik gradatsiyasi.

Yuqorida guvohi bo‘lganingizdek, undov so‘zlar, emotsional sifatlar va ravishlar orqali so‘zlovchining ijobiy yoki salbiy emotsiyasini gradatsion ifodalash usullarini tahlil qildik. Bularning qatoriga emotsiyani ifodalovchi kesimlik qo‘shimchalarini ham kiritish mumkinmikan? Emotsiyani ifodalovchi kesimlik qo‘shimchalarini ham gradatsion ifodalashning imkoni bor yoki yo‘q ekanligini quyidagi misollar orqali analiz qilib ko‘ramiz.

(1)“정말 그렇구나! 참 놀랍구나! 와, 대단하구나! 와, 정말 놀랍구나! 와, 정말 최고구나!”

(2)“아, 신기하구나! 어머, 믿기 어렵구나! 와, 정말 멋지구나! 우와, 너무 아름답구나! 와, 정말 감탄스럽구나!”

(3)“어머, 이게 뭐야! 와, 대박이야! 와, 정말 최고야! 와, 진짜 최고야! 와, 완전 끝내주구나!”

Yuqorida keltirilgan misollarni birma-bir tahlil qiladigan bo‘lsak, ularda emotsiyani ifodalovchi kesimlik qo‘shimchalari ishtirok etganligiga qaramasdan emotsiyani darajalashda muhim ahamiyat kasb etmagan. Gradatsiyani ifodalash yukini esa aynan ravishlar va undov so‘zlar o‘z zimmasiga olgan. Bundan kelib chiqib, koreys tilida emotsiyani ifodalovchi kesimlik qo‘shimchalari so‘zlovchining vaziyatga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy emotsiyasini namoyon etishida qo‘llanilishi mumkin, ammo ushbu emotsiyani darajalab, gradatsion ifodalay olish xususiyatiga ega emas degan xulosaga kelish mumkin.

XULOSA

Koreys tilida emotsiyani darajalab vaziyatga mos keladigan darajadagi nutqda foydalanish nutqqa tabiiylik va jonlilik baxsh etadi. So‘zlovchining vaziyatga yoki suhbatdoshning bildirgan fikri, bergan ma’lumotiga mos emotsiya bildira olmaslik suhbatda g‘alizlik yoki tushunmovchilikni keltirib chiqarishi, hatto, suhbatdosh bilan munosabatlarga ham keskin salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Haqiqiy til mutaxassisi bo‘lish uchun esa, og‘zaki nutq qobiliyati eng muhim ko‘nikmalardan biri sanaladi. Koreys tilida emotsiyani gradatsion darajalarga taqsimlashda ravishlar, intonatsiya, undov so‘zlar, emotsional sifatlar va emotsiyani ifodalovchi kesimlik qo‘shimchalaridan foydalaniladi. Koreys tilida emotsiyani ifodalovchi kesimlik qo‘shimchalari so‘zlovchining vaziyatga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy emotsiyasini namoyon etishida qo‘llanilishi mumkin, ammo ushbu emotsiyani darajalab, gradatsion ifodalay olish xususiyatiga ega emasligi misollar asosida isbotlandi. Gradatsiyani ifodalash yukini esa aynan ravishlar va undov so‘zlar o‘z zimmasiga oladi. Koreys tilida deyarli barcha undov so‘zlar, *험, 대박* bundan mustasno, kesimlik qo‘shimchalari, ravishlar ham salbiy, ham ijobiy emotsiyani ifoda etishi mumkin. Salbiy yoki ijobiy emotsiya ekanligini ular bilan qo‘llanilgan so‘zlar va kontekstdan anglab olish muki. Emotsional sifatlar va ohang esa ijobiy yoki salbiy ma’noni o‘zida namoyon etish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. O‘zbek tilshunosligida so‘zlovchining vaziyatga qarata bildirgan emotsiyasini ifodalashda emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan so‘zlardan, ya’ni, undov so‘zlardan foydalanilsa leksik usul hisoblanadi. aynan undov so‘zlar o‘zining kuchlilik darajasiga ko‘ra tartiblanadi. *E-e, ey, voy, oh, oh-oh-oh, e voh* kabi pastdan yuqoriga qarab darajalanib borishi mumkin. Bu ketma-ketlikdan *oh-oh-oh* ni olib tashlansa qolgan undov so‘zlar ham ijobiy, ham salbiy emotsiyani ifoda etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.Bazarov. O‘zbek tilida darajalanish. Diss. 1997- B.127-128.
2. T.Bekmirov. Shaxsning emotsional-irodaviy holatlari.O‘quv-uslubiy qo‘llnma. Toshkent-2022. B.11-12.
3. N.P.Dustmamatova.O‘zbek va rus tillarida graduonimiya. Diss. Tashkent, 2023- 163b.
4. 이기문. 동아 새국어사전. 제5판. 독산동아.2003.-P.2056.
5. 이희승. 민중 옛센스 국어사전. 제6판. 민중서림. 2006.- P.2057.
6. 김진수 외. 중학교 국어 1-1.2017.- P.10.
7. 김예지, 신아영, 조태린.한국어의 새로운 감탄 표현 사용 양상 연구: ‘험’, ‘대박’을 중심으로. 연세대학교.2017,-25p.
8. 나윤희. 한국어와 프랑스어 분노 표현 비교연구.서울,2013.-183 b.